

## PARAZITAR KASALLIKLARNING DIAGNOSTIKASI

**Sanoyeva M.F**

**Djamilova M.D**

**Ruziqulova N.A**

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

**Annotatsiya.** *Maqolada parazitlar kasalliklarining diagnostik usullari haqida ma'lumotlar berilgan. Hozirgi paytda dunyo miqyosida parazitlar kasalliklar keng tarqalgan bo'lib, ularni o'z vaqtida aniqlash, to'g'ri diagnoz qo'yish dolzarb masalardan biri hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar.** *Parazit, gelmint, usul, organ, tashxis, sirologik, antitana*

Parazitlar kasalliklar qo'zg'atuvchining turiga ko'ra uchta katta guruhga-sodda hayvonlar, gelmintlar va artropodlar keltirib chiqaradigan kasalliklarga bo'linadi. Shuningdek, kasallikning bosqichiga qarab, parazitlar o'tkir va surunkali, lokalizatsiyasiga ko'ra - ichak va ichakdan tashqariga bo'linadi, ularda parazitlar turli to'qimalar va organlarda - o'pka, mushaklar, jigarda yashaydi va ko'payadi.

Kasallikning turli davrlarida klinik belgilarning xilma-xilligi va ularning namoyon bo'lish darajasi aksariyat hollarda faqat parazitologik laboratoriya tekshiruvlari natijalari asosida yakuniy tashxis qo'yishga asos bo'ladi. Parazitologik diagnostikaning asosi parazitlarni, ularning lichinkalarini yoki tuxumlarini xo'jayin organizmida to'g'ridan-to'g'ri aniqlashni va ularning mavjudligi izlarini (o'ziga xos antitanalar, dezoksiribonuklein kislotasi parchalari - DNK) o'z ichiga olgan laboratoriya tadqiqot usullari tashkil etadi.

Makroskopik usullar tanada yoki bemorlarning sekretsiyalarida oddiy ko'z bilan ko'rinadigan yetarlicha yirik parazitlarni yoki ularning bo'laklarini aniqlash uchun ishlatiladi. Ushbu usullardan foydalanish ba'zi sestodozlar va nematodozlarni tashxislash imkonini beradi.

Mikroskopik usullar parazitlarni, ularning sistalari, tuxumlari yoki lichinkalarini o'z ichiga olgan turli xil biologik substratlarning mikroskopda tekshirishga asoslangan. Tashxis uchun najas, balg'am, orqa miya suyuqligi, qon va boshqalarning bo'yalgan surtmalari tekshiriladi. Parazitlar zich to'qimalarda joylashuvini o'rganishda biopsiya materialini mikroskopik tekshiruv orqali amalga oshiriladi.

Ichak gelmintiozlarini tashxislash uchun ko'pincha gelmintovoskopik va gelmintlarvoskopik usullar ya'ni nativ surtma, Kato va Miura bo'yicha qalin surtma, flotatsiya va sedimentatsiya, strongiloidoz, ankilostomiz kasalligini aniqlashda qo'llaniladigan Berman usullari qo'llaniladi. Enterobioz va teniidozlarni tashxislashda perianal burmalardan paxtali tamponi yoki yopishqoq tasmalar yordamida qirmalar olish, Gimmel'farb usulida kechasi perianal burmalarga paxtali tampon qo'yish usullaridan foydalaniladi.

Molekulyar biologik usullar polimeraza zanjiri reaksiyasi (PCR) yordamida tana substratlarida parazit DNK bo'laklarini aniqlashga asoslangan. Floroskopiya, kompyuter

tomografiyasi (KT), magnit-rezonans tomografiya (MRT), ultratovush (UT), fibrogastroduodenoskopiya (FGDS) yordamida parazitlarni va o'ziga xos patologik o'zgarishlarni aniqlanadi. Ayrim parazitozlarni (toksoplazmoz, leishmanioz, afrika tripanosomoz) diagnostikasi uchun laboratoriya hayvonlarida bionamunalardan foydalaniladi. Serologik usullar parazit oqsillariga qarshi xo'jayin tomonidan ishlab chiqariladigan spesifik antitanalarni aniqlashga asoslanadi. Bunda immunoferment tahlil, immunofluorestsensiya va gemagglyutinatsiya reaksiyalari qo'llaniladi. Bu usullar to'qimalar parazitozlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega ( toksoplazmoz, trixinellez, exinokokkoz).

Parazitozni tashxislashning eng keng tarqalgan usuli bu gelmint antigenlariga antitanalarni aniqlash uchun IFA-testi hisoblanadi. Echinokokkozga ushbu usul yordamida tashxis qo'yiladi. Echinokokk surunkali gelmintik kasallik bo'lib, unda parazit lichinkalari bo'lgan bir yoki ko'p kamerali pufaklar jigar, o'pka va boshqa organlarda hosil bo'ladi. Exinokokkozda immunodiagnostika juda samarali diagnostika usuli hisoblanadi, chunki bu tashxisni nafaqat klinik belgilar namoyon bo'lganda, balki kasallikning dastlabki davrida ham tasdiqlashga imkon beradi, garchi kasallikning boshlanishida antitanalarning titrlari past bo'lgan vaqtda ham to'g'ri diagnoz qo'yish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda IFA-usuli keng qo'llanilmoqda, chunki u 90% jigar, 60% ga yaqin o'pka exinokokkozini davolashda ijobiy natija bergan. Asoratlanmagan hollarda echinokokkoz bilan yillar davomida kasallanib yurish mumkin va tasodifan fluorografi yoki maqsadli epidemiologik tadqiqotlar paytida aniqlanishi mumkin. Immunologik tadqiqotlar ichida IFA- usuli eng samarali bo'lib, echinokokkoz va alveokokkozni 97% aniqlik bilan tashxislash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, parazitlar kasalliklarni sifatli va zamonaviy diagnostika qilish sog'liqni saqlash sohasida juda katta muammo bo'lib, uni hal qilish klinistlar va laboratoriya xodimlarining maqsadli hamkorligiga bog'liqdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Тихонова Е.П., Анисимова Е.Н., Кузьмина Т.Ю., Дерягин Ю.П., Миноранская Е.И. Учебное пособие по гельминтозам для врачей, интернов и ординаторов освещают вопросы этиологии, эпидемиологии, циклов развития паразитов, патогенеза, клинической картины наиболее часто встречающихся глистных инвазий на территории Красноярского края, 2009.
2. Turakulova, M., & Ruzikulova, N. (2023). The significance of didactic games in assessing students'knowledge. *Science and innovation*, 2(B3), 65-67.
3. Ruzikulova, N. A. (2023). Information on the Reproductive Cycle of *Costatela acuta* (Draparuaud, 1805). *Bulletin of Pure & Applied Sciences-Zoology*, 42(2), 287-290.
4. Ruzikulova, N. A. (2022). Biology and Life Cycle of *Candaharia levanderi* (Simroth, 1901). *Bulletin of Pure & Applied Sciences-Zoology*, 41(2), 262-266.
5. Иззатуллаев, З. И., & Рузикулова, Н. А. (2020). Особенности экологии и жизненных циклов водных моллюсков Средней Азии. *Бюллетень Дальневосточного малакологического общества*, 24(1/2), 37-52.